

SHAXS SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING SOTSIOGENETIK, PSIXOGENETIK YO'NALISHI

Matlyuba Xolnazarova,

Guliston davlat universiteti professori

Maftuna Axmatqulova

Guliston davlat universiteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada shaxs shakllanishi va rivojlanishining sotsiogenetik, psixogenetik yo'nalishi borasida so'z yuritiladi. Sotsiogenetik yondashuvga binoan, shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlar jamiyatning tuzilishi, ijtimoiylashish (sotsializatsiya) usullari, uni qurshab turgan odamlar bilan o'zaro munosabati vositalaridan kelib chiqqan holda tushuntiriladi.

Kalit so'zlar: sotsiogenetik yondashuv, psixogenetik yondashuv, kognitivistik yo'nalish, intellekt nazariyasi, individual tajriba.

Biogenetik nazariyaning qarama-qarshi ko'rinishi - bu aksil qutbga joylashgan sotsiogenetik nazariya hisoblanadi. Sotsiogenetik yondashuvga binoan, shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlar jamiyatning tuzilishi, ijtimoiylashish (sotsializatsiya) usullari, uni qurshab turgan odamlar bilan o'zaro munosabati vositalaridan kelib chiqqan holda tushuntiriladi. Ijtimoiylashuv nazariyasiga ko'ra, inson biologik tur sifatida tug'ilib, hayotning ijtimoiy shart-sharoitlarining bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi.

AQSHda keng tarqalgan nazariyalardan biri - bu individual tajriba va bilimlarni egallash (mustaqil o'zlashtirish) nazariyasidir. Mazkur nazariyaga binoan shaxsning hayoti va uning voqelikka nisbatan munosabati ko'pincha ko'nikmalarni egallash va bilimlarni o'zlashtirishning samarasi qo'zg'atuvchini uzliksiz ravishda mustahkamlanib borishning mahsulidir.

K.Levin tomonidan tavsiya qilingan "fazoviy zarurat maydoni" nazariyasi psixologiya fani uchun (o'z davrida) muhim ahamiyat kasb etadi. K.Levinning nazariyasiga ko'ra individning xulqi (xatti-harakati) psixologik kuch vazifasini o'tovchi ishtiyoq (intilish), maqsadlar bilan boshqarilib turiladi va ular fazoviy zarurat maydonining ko'lami va tayanch nuqtasiga yo'naltirilgan bo'ladi.

Yuqorida tahlil qilingan (sharhlangan) har bir nazariya shaxsning ijtimoiy xulqi (hatti-harakati) ni o'zgalar uchun yopiq muhit xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tushuntiradi, bu o'rinda odam xohlaydimi yoki yo'qmi bundan qat'i nazar mazkur sharoitga moslashmog'i zarur, degan aqidaga amal qilinadi.

Bizningcha, barcha nazariyalarda inson hayotining ijtimoiy-tarixiy vaziyatlari va ob'ektiv shart-sharoitlari mutlaqo e'tiborga olinmaganga o'xshaydi.

Psixologiyada psixogenetik yondashish ham mavjud bo'lib, u biogenetik, sotsiogenetik omillarning qimmatini kamsitmaydi, balki psixik jarayonlar taraqqiyotining birinchi darajali ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Ushbu yondashishning uchta mustaqil yo'nalishga ajratib tahlil qilish mumkin, chunki ularning har biri o'z mohiyati, mahsuli va jarayon sifatida kechishi bilan o'zaro tafovutlanadi.

Psixikaning irratsional (aqliy bilish jarayonlaridan tashqari) tarkibiy qismlari bo'lmish emotsiya, mayl va shu kabilar yordamida shaxs xulqini tahlil qiluvchi nazariya psixodinamika deyiladi. Mazkur nazariyaning yirik namoyondalaridan biri - bu amerikalik psixolog E.Eriksondir. U shaxs rivojini 8 ta davrga ajratadi va ularning har qaysisi o'ziga xos betakror xususiyatga egadir.

E.SHpranger "O'spirinlik davri psixologiyasi" degan asarida qizlarning 13 yoshdan 19 yoshgacha, yigitlarning esa 14 yoshdan 22 yoshgacha kiritishni tavsiya qiladi. Ushbu yosh davrida yuz beradigan asosiy o'zgarishlar E.SHpranger bo'yicha:

- a) shaxsiy "Men" ni kashf qilish,
- b) refleksiyani o'sishi,
- v) o'zining individualligini anglash (tushunish) va shaxsiy xususiyatlarini e'tirof qilish,
- g) hayotiy ezgu rejalarining paydo bo'lishi,
- d) o'z shaxsiy turmushini anglagan holda qurish ustanovkasi va hokazo. Uning fikricha, 14-17 yoshlarda vujudga keladigan inqirozning mohiyati ularga kattalarning bolalarcha munosabatidan qutulish tuyg'usini tug'ilishidan iboratdir. 17-21 yoshlarning yana bir xususiyati - o'zining tengqurlari va jamoatchilik qurshovidan "uzilish inqirozi" va tanholik tuyg'usining paydo bo'lishidir. Bu holatni tarixiy shartlanganlik shart-sharoitlar va omillar vujudga keltiradi.

E.SHpranger, K.Byuler, A.Maslou va boshqalar personologik nazariyaning yirik namoyandalari bo'lib hisoblanadilar.

Kognitivistik yo'nalishning asoschilari qatoriga J.Piaje, Dj. Kelli va boshqalarni kiritish mumkin.

J.Piaje intellekt nazariyasi ikkita muhim jihatga ajratilgan bo'lib, u intellekt funksiyalari va intellektning davrlari ta'limotini o'z ichiga qamrab oladi. Intellektning asosiy funksiyalari qatoriga uyushqoqlik (tartiblilik) va adaptatsiya (moslashish, ko'nikish) dan iborat bo'lib, intellektning funksional invariantligi deb yuritiladi.

Muallif shaxsda intellekt rivojlanishining quyidagi bosqichlarga ajratadi:

- 1) sensomotor intellekti (tug'ilishdan to 2 yoshgacha),
- 2) operatsiyalardan ilgarigi tafakkur davri (2 yoshdan to 7 yoshgacha),
- 3) konkret operatsiyalar davri (7-8 yoshdan 11-12 yoshgacha),
- 4) formal (rasmiy) operatsiyalar davri.

J.Piajening g'oyalarini davom ettirgan psixologlarning bir guruhini kognitiv-genetik nazariyaga biriktirish mumkin. Bu yo'nalishning namoyandalari qatoriga L.Kolberg, D.Bromley, Dj.Birrer, A.Vallon, G.Grimm va boshqalar kiradi.

Fransuz psixologi A.Vallon nuqtai nazaricha, shaxsning rivojlanishi quyidagi bosqichlarga ajratiladi:

- 1) homilaning ona qornidagi davri,
- 2) impulsiv harakat davri - tug'ilgandan to 6 oylikgacha,
- 3) emotsional (his-tuyg'u) davri - 6 oylikdan to 1 yoshgacha,
- 4) sensomotor (idrok bilan harakatning uyg'unlashuvi) davri - 1 yoshdan to 3 yoshgacha,
- 5) personalizm (shaxsga aylanish) davri - 3 yoshdan to 5 yoshgacha,
- 6) farqlash davri - 6 yoshdan to 11 yoshgacha,
- 7) jinsiy yetilish va o'spirinlik davri - 12 yoshdan to 18 yoshgacha.

Yana bir fransiyalik yirik psixolog Zazzo o'z vatanidagi ta'lim va tarbiya tizimining tamoyillaridan kelib chiqqan holda, mazkur muammoga boshqacharoq yondashib va uni o'ziga xos talqin qilib, insonning ulg'ayib borishini quyidagi bosqichlarga ajratishni tavsiya qiladi:

1. Birinchi bosqich - bolaning tug'ilganidan 3 yoshigacha.
2. Ikkinchi bosqich - 3 yoshidan 6 yoshigacha.
3. Uchinchi bosqich - 6 yoshidan 9 yoshigacha.
4. To'rtinchi bosqich - 9 yoshidan 12 yoshigacha.
5. Beshinchi bosqich - 12 yoshidan to 15 yoshigacha.
6. Oltinchi bosqich - 15 yoshidan 18 yoshigacha.

Sxemadan ko'rinib turibdiki, R.Zazzo shaxs rivojlanishining bosqichlariga individuallik sifatida tarkib topish, takomillashish nazariyasidan kelib chiqib yondashgani shaxs shakllanishi pallasining yuqori nuqtasi, ya'ni ijtimoiylashuvi bilan cheklanishga olib kelgan. SHuning uchun uning ta'limoti insonning ontogeneza takomillashuvi, o'zgarishi, rivojlanishi xususiyatlari va qonuniyatlari to'g'risida mulohaza yuritish imkonini bermaydi.

G.Grimm shaxs rivojlanishi quyidagi bosqichlardan iborat ekanligini tavsiya qiladi:

- 1) chaqaloqlik - tug'ilganidan to 10 kungacha,
- 2) go'daklik - 10 kunlikdan to 1 yoshigacha,
- 3) ilk bolalik - 1 yoshdan to 2 yoshigacha,
- 4) birinchi bolalik davri - 3 yoshdan to 7 yoshigacha,
- 5) ikkinchi bolalik davri - 8 yoshdan to 12 yoshigacha,
- 6) o'smirlik davri 13 yoshdan to 16 yoshigacha o'g'il bolalar, 12 yoshdan 15 yoshigacha qizlar,

7) o'spirinlik davri - 17 yoshdan to 21 yoshgacha yigitlar, 16 yoshdan 20 yoshgacha qizlar (bokiralar),

8) yetuklik davri: birinchi bosqich - 22 yoshdan 35 yoshgacha erkaklar, 21 yoshdan 35 yoshgacha ayollar, ikkinchi bosqich - 36 yoshdan 60 yoshgacha erkaklar, 36 yoshdan 55 yoshgacha ayollar,

9) keksayish (yoshi qaytgan davr) - 61 yoshdan to 75 yoshgacha erkaklar, 55 yoshdan to 75 yoshgacha ayollar,

10) qarilik davri - 76 yoshdan to 90 yoshgacha (jinsiy tafovut yo'q),

11) uzoq umr ko'ruvchilar 91 yoshdan boshlab to cheksizlikkacha.

SHunday qilib, biz chet el psixologiyasida shaxs rivojlanishining yo'nalishlari va nazariyalarini qisqacha sharhlab o'tdik. Qilingan tahlillardan ko'rinib turibdiki, Yevropa mamlakatlari va AQSH psixologlari orasida bu sohada bitta umumiy nazariya hali ishlab chiqilmagan. Buning bosh sababi shaxsning tuzilishi, uni shakllanish qonuniyatlari, uning kamolotida ob'ektiv va sub'ektiv ta'sirlarning roli, mikro va makromuhitning ta'siri, rivojlanishning tayanch manbalari bo'yicha umumiylikning yo'qligi, aniq metodologiyaga va ilmiy platformaga asoslanmaganlikdir.

Sotsiogenetik konsepsiya shaxsni tevarak atrofdagi ijtimoiy muhitning bevosita ta'siri natijasi, muhitdan olingan nusxa deb hisoblaydi. Bunda ham xuddi biogenetik konsepsiyadagi kabi rivojlanib borayotgan kishining xususiy faolligi inobatga olinmaydi, uning tevarak atrofdagi vaziyatga moslashayotgan mavjudotga xos sust o'rin tutishi mumkin deb hisoblanadi. Agar sotsiogenetik konsepsiyaga amal qilinadigan bo'lsa, nima uchun ba'zi vaqtlarda bir xil ijtimoiy muhitda turli odamlar yetishib chiqishini tushuntirib bo'lmaydi.

Shunday qilib, na biogenetik va na sotsiogenetik konsepsiyalar shaxs rivojlanishining qonuniyatlarini tushunib yetishga asos qilib olinishi mumkin emas. Unisi ham, bunisi ham psixik rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchlarini aniqlay olmaydi. Buni amalga oshirishga ikkala omilning (muhit va irsiyatning) mexanik tarzidagi o'zaro bog'liqlikdagi harakati yoxud konvergensiya (bir xil tashqi muhitda o'xshash belgilarning hosil bo'lishi) nazariyasi ham yordam bera olmaydi. Chunki bunda rivojlanishning ikkala konsepsiyasi xatolari bartaraf etilishidan ko'ra ko'proq orta boradi.

Shaxsning shakllanishi uning jamoaga qo'shilganligi sharoitida ro'y beradi. A.S.Makarenko ta'kidlaganidek, shaxs yuksak darajada rivojlangan guruhdan iborat va shaxsning qimmatli fazilatlarini shakllantirish uchun eng qulay sharoitlarga ega bo'lgan jamoada va jamoa vositasida rivojlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Холназарова, М. Х. (2015). Формирование творческих способностей личности в процессе социализации. *Austrian Journal of Humanities and Social Sciences*, 1(3-4), 109-111.

2. Гафуров, Б. А., & Холназарова, Д. М. (2016). Отражение социальной и религиозной политики Бабура в его завещании. *Наука и образование сегодня*, (4 (5)), 59-60.
3. Нишонов, З. У., Камилова, Н. Г., Абдуллаева, Д. У., & Холназарова, М. Х. (2017). Ривожланиш психологияси. *Педагогик психология-Тошкент-2017-йил*.
4. Холназарова, М., & Алибаева, Д. (2021). БОШҚАРУВ ҚАРОРЛАРИНИ ҚАБУЛ ҚИЛИШ ВА РАҲБАР ШАХСИНИНГ ИНДИВИДУАЛ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(Special issue), 209-212.
5. Холназарова, Д. М. (2022). ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИ ТАЛАБАЛАРИДА ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 1(12), 225-232.
6. Kholnazarova, M. (2023). THE DEVELOPMENT STAGES OF TEACHING KUBROVIA IN PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL INTERPRETATION. *Science and innovation*, 2(C11), 86-92.
7. Kholnazarova, D. (2022). THE ROLE OF THE EDUCATION SYSTEM IN THE DEVELOPMENT OF LEGAL CULTURE IN STUDENTS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 10(1).
8. Kholnazarova, M. X., & qizi Khudaiberdieva, D. K. (2023). OBSESSIVE–COMPULSIVE DISORDER HISTORY AND FACTORS. *ILM FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY METODLARNING QO'LLANILISHI*, 3(8), 44-47.
9. Kholnazarova, M. X., & Mukhlibayev, M. K. Age and pedagogical psychology. *Textbook. Tashkent-2014*.
10. Nishanova, Z. T., Kamilova, N. G., Abdullayeva, D. U., & Kh, M. Kholnazarova “Developmental psychology. *Pedagogical psychology*.
11. Mamatmuratovna, K. D., & Gapparovich, T. S. (2021, April). SYSTEM OF PREPARATION OF YOUNG PEOPLE FOR SPIRITUAL, LEGAL AND LEGAL EDUCATION. In *Archive of Conferences* (Vol. 23, No. 1, pp. 168-171).
12. Kholbotaevna, K. M. (2023). Development of Cognitive Processes in Early Childhood. *International Journal of Formal Education*, 2(11), 372-379.
13. Kholbutaevna, K. M. (2021). Features of personality psychology. *Psychology*, 58, 6165-6169.
14. Kholnazarova, D. M. (2022). METHODS OF DEVELOPING LEGAL CULTURE IN STUDENTS. *Conferencea*, 126-134.
15. Kholnazarova, D., & Ungarova, I. (2024). YANGI O ‘ZBEKISTONDA AHOLI IJTIMOIIY HIMOYASINING USTUVOR YO ‘NALISHLARI. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(4), 45-47.
16. Kholnazarova, D. (2022). THE ROLE OF THE EDUCATION SYSTEM IN THE DEVELOPMENT OF LEGAL CULTURE IN STUDENTS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 10(1).